

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

**ZIRADOSHLAR (APECEAE) OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR
O'SIMLIKLARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA AHAMYATI
TAVSIFI.**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti biologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi
Ziyoyeva Noila Isroil qizi.

Anotatsiya; Ushbu maqolada Ziradoshlar oilasi vakillari hisoblangan va ilmiy tibbiyotda keng foydalanib kelinayotgan ayrim dorivor o'simliklar haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Magnoliasimonlar Umhelliferae ,apeceae ,ferula, aktinamorf, kallakcha, soyabon , nov, bunium, carium carvi.

**ОПИСАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СВОЙСТВ И ЗНАЧЕНИЯ
НЕКОТОРЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ, ПРИНОСЯЩИХ К
СЕМЕЙСТВУ АПЕЦЕЕВЫЕ.**

Аннотация; В данной статье рассказывается о некоторых лекарственных растениях, которые считаются представителями семейства Зирадост и широко используются в научной медицине.

Ключевые слова: магнолии, Umhelliferae, апеки, ферула, актинаморфа, череп, зонтик, новья, бунимум, кариум карви.

**DESCRIPTION OF MEDICINAL PROPERTIES AND SIGNIFICANCE OF
SOME MEDICINAL PLANTS BELONGING TO APECEAE FAMILY.**

Annotation; This article talks about some medicinal plants that are considered representatives of the Apiceae family and are widely used in scientific medicine.

Key words: Magnolias, Umhelliferae, apecae, ferula, actinamorph, skull, umbrella, nov, bunium, carium carvi.

Tabiatimizdagi ko'p o'simliklar oziq-ovqatga sifatida ishlatilishi bilan qolmay dorivorlik xususiyatini ham namoyon qiladi. Olimlar tomonidan har bir o'simlikning o'ziga xos bo'lgan dorivorligi o'rganib chiqilgan. Ziradoshlar oilasining ba'zi turlarida ham shifobaxshlik bor.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Ziradoshlar (Soyabondoshlar) oilasi —Apiaceae (Umhelliferae). Bu oila 300 taga yaqin turkumga mansub 3000 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ular butun Yer yuzi bo'ylab keng tarqalgan. O'rta Osiyoda oilaning 97 turkumga mansub 422 ta turi, yurtimizda 69 ta turkumga oid 198 ta turi o'sadi. Hayotiy shakliga ko'ra ziradoshlar oilasida bir va ko'p yillik o'simliklar ustunlik qiladi, ba'zan yarim buta va butalar ham uchraydi. Barglari turli darajada qirqilgan, butunlari ham mavjud. Ko'pchilik turlarida (kavrak)bargining asosida qini (novi) bo'ladi. To'pguli oddiy yoki murakkab bo'ladi. Soyabon, kallakcha turi uchraydi. Gullarining rangi juda ham xilma-xil, gulqo'rg'oni murakkab, gulkosachabarglari reduksiyalangan 5 tadan, mayda, gultojibarglari 5 ta, tutashmagan. Changchisi 5 ta, urug'chisi 2 ta, tugunchasi ostki tuguncha. Mevasi —pistacha. Gul formulasi: $Ca_5-0 Co_5 A_5 G(2)$. Oila soyabonguldoshlar deb nomlangan, chunki bu oilaga kiruvchi o'simliklarning to'pgullari murakkab soyabondan iborat. Barglari, asosan, murakkab, yon jinsli, aktinomorf, gulqo'rg'oni ikki doira hosil qilib o'rinishgan. Gul bargchasi, barg bandi kengayib, nov hosil qiladi hamda poyani o'rab turadi. Oila vakillari efir moylariga boy hisoblanadi. Bu oilaga zira (Buniurn), qora zira (Carum carvi), kashnich (Coriandrum sativum), sabzi (Daucus), ukrop (Anethum), petrushka (Petroselinum sativum), kovrak (Ferula), arpabodiyon (Pimpinella anisum) kiradi. Turkum vakillari alkaloid, smola, asalli, sabzavot ekinlari, efir moyli o'simliklar sifatida ahamiyatga egadir.

Ziradoshlar oilasi sistematikasi:

Bo'lim :Yopiq urug'lilar bo'limi -Magnoliophyta

Sinf: Ikki urug'pallalilar ajdodi- Magnoliopsida.

Sinfcha : Ra'nokabilar -Rosoidae.

Qabila: Ziranamolar -Apiotes.

Oila : Ziradoshlar -Apeceae.

Zira –ozdiruvchi ziravor. Zira ovqatga solinadigan va yog'hujayralarining to'planib qolishini kamaytirish bilan birga ozishga yordam beruvchi ajoyib ziravor[5]. Bu ziravor ortiqcha vazn hosil bo'lishining oldini olishdan tashqari, oldindan mavjud bo'lgan ortiqcha kilogrammlardan qutulishga ham yordam beradi. Zira yog'to'qimalari miqdorini yuqori darajada kamaytiradi. Eron tibbiyot fanlari universitetida o'tkazilgan tadqiqotlarda o'ziningovqatlanish ratsioniga zirani kiritgan ayollar organizmida yog'to'qimalari 14 foizga kamaygani, shu vaqtning o'zida, nazorat guruhi qatnashchilariniki esa hatto to'g'ri ovqatlanish tartibiga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

qaramasdan 5 foizga kamaygani aniqlandi. Zira uyquning bir maromda kechishini yaxshilaydi. Agarda siz uyquga to‘ymasangiz, unda ko‘proq iste‘mol qilasiz — to‘yib uxlamaslik ishtahani nazorat qila olmaslikka va moddalar almashinuvining sekinlashishiga olib keladi. Zira uyqusizlik bilan kurashishga yordam beradi. Zira qondagi qand miqdorini meyorga keltiradi. Zira hujayralarning insulinga va glyukozaga bo‘lgan extiyojini kuchaytirish yo‘li bilan qondagi shakar miqdorini ushlab turish vazifasini ham bajaradi. Zira qondagi shakar miqdorini nazoratda tutib turish bilan uglevodlarga bo‘lgan intilishni yengadi va bizdagi to‘qlik hissini uzoqroq saqlab turadi. Zira hazmni yaxshilaydi. Zira hidi og‘iz bo‘shlig‘idagi so‘lak ajralib chiqishini faollashtiradi, bu esa hazm qilish sistemasini ishga tushiradi va uning birinchi bosqichini yaxshilaydi. Zira tarkibidagi timol moddasi ovqat hazm qilish va so‘rilishda ishtirok etuvchi kislota, o‘t va fermentlar ishlab chiqaruvchi bezlar faoliyatini tezlashtiradi. Shuningdek, zira yel haydovchi vosita hisoblanadi, ya‘ni u gazyig‘ilishi va qorin dam bo‘lishi kabi muammolarining ham yechimi ekanligini bildiradi .

Kovrak(*Ferula*)turkumi(soyabonguldoshlar)*Apiaceae*(*Umbelliferae*)oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik o‘t o‘simligi hisoblanadi. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O‘rta Osiyo respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 turi uchraydi. Smola -yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi kabi turilaridan foydalaniladi[6].“Kovrak urug‘ining qaynatmasi (urug‘i xuddi supurginikiga o‘xshash malla rang, shakli ham shunga o‘xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko‘payadi. Shirasiga anjir qo‘shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo‘shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to‘kilishiga ham o‘ta foydalidir.” Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida ko‘pgina kasalliklarga davo bo‘lib, o‘pka sili, o‘lat, zaxm, ko‘k-yo‘tal, tish og‘rig‘i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida foydalaniladi. Ilmiy tibbiyotda kovrak yelim-smolasi —“assafetida”nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (*nastoyka*) hoida og‘riq qoldiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi va ko‘pgina davlatlar farmokopiyasiga kiritilgan (4-rasm). O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zR FA Botanika instituti, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi, “Yaylov xo‘jaligini rivojlantirish” uyushmasi, Dehqonobod tumani hokimligi bilan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

hamkorlikda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani “Beshbuloq QFY xududidagi “Ekokomfort” xususiy korxonasi tasarrufidagi kovrak plantatsiya dalasida “Eksport salohiyati yuqori bo‘lgan dorivor va ziravor o‘simlik –kovrakni yetishtirish” mavzusida amaliy seminar bo‘lib o‘tdi. Mazkur seminarda mamlakatimiz viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashrif buyurgan kovrak o‘simligi yetishtirish bilan shug‘ullanadiganlar hamda ushbu o‘simlikni yetishtirish istagini bildirgan bir qator loyiha ustalari shuningdek, uzoq yillar davomida ushbu dorivor o‘simlikni eksport qilib kelayotgan 100 ga yaqin tadbirkorlar ishtirok etdi. Bo‘lib o‘tgan seminarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi “Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 116-sonli Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish masala va muammolari ko‘rib chiqildi. Mutasaddi vazirlik va idoralar mas‘ullari kovrak o‘simligini yetishtirish, qishloq, o‘rmon va yaylov xo‘jaliklarida yer ajratish tartibi, madaniy holda yetishtirish uchun mos tuproq-iqlim sharoitlari, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar hamda klaster va kooperatsiya tizimini keng joriy etish haqidagi tadbirkorlarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi. Shuningdek, seminar davomida 367 gektar maydonda pista va kovrak plantatsiyasi tashkil etgan salohiyatli “Eko komfort” xususiy korxonasi rahbari madaniy holda kovrak o‘simligini suv tanqis hududlarda yetishtirish agrotexnologiyasi, hosil yig‘ishtirish va eksport qilish bo‘yicha o‘z tajribalarini ulashdi. Tadbirda aytib o‘tilganidek, respublikada so‘nggi yillarda dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o‘simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko‘paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham bilinar darajada ortmoqda. Bugungi kunda respublikada jami 12 ming gektardan ortiq maydonda kovrak o‘simligi ekilib, o‘stirilmoqda. Ushbu maydonlardan 2021-yilda qiymati 7,65 mln dollarlik 170

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

tonna kavrak shirasi eksporti amalga oshirildi.Seminar yakuniga ko'ra, aholi o'rtasida kavrak o'simligining keng iste'molini yo'lga qo'yish, yetishtirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish takliflari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, sotuv bozorlarini kengaytirish maqsadida marketing tadqiqotlarini olib borish, tabiiy hududlarda o'suvchi kavrak turkumi vakillarini asrab-avaylash, klaster va kooperatsiyalarni tashkil qilish kabi masalalarda tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlar tashkil qilish belgilab olindi.

Kovrak o'simligining ildizi tarkibida uchraydigan moddalar :

Kraxmal 67,31%

Smola 9%

Efir moyi 0,4%

Xulosa qilib aytganda, ziradoshlar oilasining deyarli barcha vakillarida dorivorlik xususiyati mavjud. Tabobatimizda tabiatdagi barcha o'simliklardagi foydali va zararli xususiyatlar o'rganilgan bo'lib , Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida oila vakillariga xos bo'lgan shifobaxshliklar ham keltirib o'tilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ikromova .M.I, Normurodov.X.N, Yuldashev.A.S. BOTANIKA. "O'zbekiston" TOSHKENT-2002
- 2.Pratov.O', Shamsuvaliyeva L. Sulaymonov E. Axunov X. Ibodov X. Maxmudov V. BOTANIKA ."Ta'lim nashriyoti" TOSHKENT –2010. 226-bet
- 3.Tursunboyeva G.S. Komilova Sh.R BOTANIKA ASOSLARI. TOSHKENT –2009
- 4.Hamdamov I.H, Hamdamova E.I , Suvonova G.A , Begmatova M. BOTANIKA VA O'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI. "Sano-standart "nashriyoti.TOSHKENT –2017. 249-bet
- 5.Matkarimova A.A, Mahkamova T.X, Maxmudova M.M, Azizova X. Ya, Vaisova G.B. BOTANIKA .TOSHKENT –2018. 255-bet
- 6.Berdiyev E.T, Hakimova M.X, Maxmudova G.B O'RMON DORIVOR O'SIMLIKLARI . "Sano-standart" nashriyoti. TOSHKENT-2016. 141-bet ; 110-bet; 106-bet.